Key words: investment, fixed capital, physical assets, government program, aggregate demand, infrastructure, modernization, marginal efficiency, investment policy.

Аннотация. В статье предпринята попытка выявить специфические особенности финансирования инвестиций в реальный сектор экономики, то есть в основной капитал, на основе опыта развитых стран. Исследование показало, что в странах, где доля инвестиций в основной капитал в ВВП снизилась, большее влияние оказали глобальные тенденции, экономические условия и изменения в экономической структуре, в то время как в странах, где доля инвестиций в ВВП увеличилась, были выявлены тенденции активной государственной инвестиционной политики, стратегии постпандемического восстановления и перехода к капиталоемкой модели роста. Также в исследовании представлены соответствующие выводы и рекомендации.

Ключевые слова: инвестиции, реальные инвестиции, венчурный капитал, инвестиционные фонды, рынок капитала, кредит, облигации, государственные гранты, инфляция, экономическая ситуация.

KIRISH

Hozirgi vaqtda real va moliyaviy investitsiyalar har qanday bozor iqtisodiyotida mavjud bo'lgan investitsiya oqimining asosiy turlari hisoblanadi. Real investitsiyalarning asosiy roli alohida korxonalarning va umuman iqtisodiyotning moddiy-texnik bazasini yaratish, takror ishlab chiqarish va kengaytirishda bo'lganligi sababli, bunday investitsiyalar har qanday kompaniya faoliyatining asosini tashkil qiladi va ko'pgina iqtisodiy sub'ektlar uchun real investitsiyalar investitsiya faoliyatining yagona yo'nalishi hisoblanadi. Real investitsiyalar yangi mahsulot bozorlarini rivojlantirish imkonini beradi va kompaniyaning bozor qiymatining o'sishini ta'minlaydi.

Jahon iqtisodiyotida barqaror o'sishni ta'minlash va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda real sektorga yo'naltirilgan investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. "Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki,



sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va energetika sohaslariga kiritilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning moliyaviy poydevorini yaratadi" [1].

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kapital bozori rivojlangan bo'lib, bank kreditlari, obligatsiyalar va aksiyalar orqali korxonalarning investitsiya imkoniyatlari kengaytirilgan. Shu bilan birga, "davlat iqtisodiyotga aralashuvi asosan tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi - masalan, soliq imtiyozlari va subsidiyalar, strategik tarmoqlarni rivojlantirish uchun davlat-xususiy sheriklik loyihalari" [2].

AQShda venchur kapital va xususiy investitsiya fondlari real sektor loyihalari uchun asosiy moliyaviy manba sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar va yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga yo'naltirilgan loyihalar davlat dasturlari bilan ham qo'llab-quvvatlanadi. Yaponiya misoli esa davlatning qo'llab-quvvatlovi va korporativ moliyalashtirishning samarali kombinatsiyasi orqali sanoatning modernizatsiyasi va yuqori texnologiyali tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning real sektoriga kiritilgan investitsiyalarni moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, ularning samarali moliyaviy va institutsional mexanizmlari tahlil qilinishi, ilg'or tajribalarni umumlashtirish va rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan, O'zbekiston iqtisodiyotida joriy etish istiqbollari ilmiy asoslash muhimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalarni moliyalashtirishning asosiy xususiyatlaridan biri - kapital bozorlarining yuqori darajada rivojlanganligi va moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish imkoniyatidir.

"Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ko'rinishicha, davlat dasturlari va institutsional muhit investitsiyalarning samaradorligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Institutsional qoidalarining mustahkamligi, transaksion xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash imkoni investitsiya faolligini kengaytirishga xizmat qiladi"[3]. Bu jihatdan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni milliy iqtisodiyotga integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Masalan, davlat-xususiy sheriklik, soliq va subsidiya siyosati, strategik tarmoqlarni moliyalashtirish mexanizmlari orqali xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'llari ilmiy tahlil qilishga muhtoj.

Jahon ilmiy tadqiqotlari investitsiyalar moliyalashtirilishida moliyaviy bozorlar, institutsional muhit va davlat mexanizmlari muhim rol o'ynashi haqida fikr yuritadi. "Masalan, OECDning ishlarida real sektorni moliyalashtirish uchun bank kreditlari, obligatsiyalar va kapital bozorlari orqali moliyaviy resurslarning samarali ishlatilishi ta'kidlanadi. Bu analitik hisobotda aytilishicha, moliya tizimining barqarorligi va kreditga kirish imkoniyatlarini kengaytirish real sektorning o'sishi va investitsiya xarajatlarining samaradorligi uchun muhim omillar sanaladi"[4].

Shu o'rinda o'zbek olimlaridan A.Vaxabov, D.G'ozibekov, N.Karimov va SH.Mustafaqulov investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati, investitsiya muhitining jozibadorligi bilan bog'liq masalalar, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi qiyinchiliklar, investitsiya faoliyati va investitsiya salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Professor N.Karimov shunday deb hisoblaydi: "Yuqori rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, investitsiya faoliyati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik bir xil emas. Biroq, ular bir-birining ortidan boradi deb hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy faoliyatga bog'liq bo'lganligi sababli, bu o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy rivojlanishining har bir aniq bosqichidagi real imkoniyatlarini belgilaydi"[5]. SH.Mustafaqulov investitsiya jozibadorligini oshirish va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqish yo'llarini o'rganib chiqdi. Investitsiya faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilishiga ko'ra, "Investitsiya faoliyatini tartibga solishda eng muhim va hal qilinishi mumkin bo'lgan masalalardan biri bu hudud bo'ylab xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni optimal, bir xil taqsimlashdir. Mintaqalarning tabiiy sharoitlari, u yerda yaratilgan biznes muhiti, adolatli o'rnatilgan ijtimoiy, tashkiliy va boshqaruv tamoyillari, aholining biznes va tadbirkorlikka bo'lgan ishtiyoqi, tavakkalchilikka chidamlilik va ishchi kuchi malakasi, turli institutsional tuzilmalarning mavjudligi va ularning rivojlanishi investitsiya jozibadorligini ko'rsatuvchi muhim omillar qatoriga kiradi"[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishi olib borish jarayonida mantiqiy fikrlash, prognozlash, sintez, tizimli yondashuv, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy taqqoslash, ilmiy umumlashtirish, statistik hisoblash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlar, jumladan AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya va Italiyada asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish tizimi infratuzilma loyihalarini qo'llabquvvatlash, xususiy



sektorning faol ishtirokini rag'batlantirish va barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiladigan strategik yo'nalishlar asosida shakllantirilgan. Ushbu mamlakatlarda investitsiya jarayonlari nafaqat kapitalni samarali taqsimlashga, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va ijtimoiy maqsadlarga erishishga qaratilgan kompleks mexanizm sifatida amalga oshiriladi. Shu tariqa, ularning tajribasi boshqa mamlakatlar, xususan rivojlanayotgan davlatlar uchun asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni samarali moliyalashtirish bo'yicha muhim amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Ushbu davlatlar tajribasida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish quyidagicha xususiyatlanadi: birinchidan, strategik maqsadga yo'naltirilganlik, jumladan, investitsiyalar infratuzilma loyihalari, sanoat modernizatsiyasi, energiya va transport tizimlarini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy sohalarda barqaror o'sishga xizmat qiladigan loyihalarga yo'naltiriladi; ikkinchidan, moliyalashtirish jarayoni davlat resurslari bilan bir qatorda xususiy sektorni jalb qilish asosida tashkil etiladi; uchinchidan, moliyaviy vositalarning kombinatsiyasi, jumladan, investitsiyalar uzoq muddatli kreditlar, obligatsiyalar, davlat grantlari, sug'urta va soliq imtiyozlari orqali moliyalashtiriladi. Shu bilan birga, moliyalashtirish strukturasi loyiha xarajatlarini optimallashtirish va samaradorlikni oshirishga yo'naltiriladi; beshinchidan, barqaror rivojlanish tamoyili, jumladan, loyihalar samaradorligi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikka ham qaratiladi. Masalan, energiya samaradorligi va yashil texnologiyalarni joriy qilish investitsiya strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi; oltinchidan, nazorat va monitoring tizimi, ya'ni har bir investitsiya loyihasi bosqichma-bosqich nazorat qilinadi, risklar tahlil qilinadi va samaradorlik ko'rsatkichlari muntazam ravishda baholanadi. Bu tizim kapitaldan maksimal darajada foydalanishni ta'minlaydi.

Qo'shma Shtatlardagi amalga oshirilgan investitsiyalarning tarkibida uzoq muddatli tendensiyasida moddiy komponentlar ulushining pasayishi hamda intellektual mulk mahsulotlarining ko'payishi hisoblanadi. 1950-yillarning boshidan boshlab binolar, inshootlar va jihozlarning yalpi ishlab chiqarish investitsiyasidagi umumiy ulushi taxminan 90% dan 67% gacha kamaydi, intellektual mulk mahsulotlari esa 10% dan 33% gacha ko'tarildi. 1980–1990-yillarda intellektual ishlab chiqarishning sezilarli o'sishi va intensiv innovatsiyalarni joriy etish natijasida investitsiya xarajatlarini samarali boshqarish imkonini berdi. Shu tariqa, investitsiyalarda intellektual kapitalning ulushini oshirish iqtisodiy rivojlanish va samaradorlikni yaxshilashga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Umuman olganda, Qo'shma shtatlar davlat tomonidan faol qullab-quvvatlanadigan intensiv rivojlanayotgan investitsiya faoliyatiga ega davlat hisoblanadi. Investitsiya faoliyatining innovatsion iqtisodiy yangilanishi asosan Amerika iqtisodiyotida shtatning fan, texnologiya va investitsiya siyosati maqsadlarini o'zaro bog'liq holda belgilashidan kelib chiqadi. "Ilmiy-texnika siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: - innovatsiyalarni kengaytirish va xususiy sektorning raqobatbardoshligini oshirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish; - yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, tijoratlashtirish va ulardan foydalanishni rag'batlantirish; - Amerika sanoati va savdosini qo'llab-quvvatlash ushuncha jahon darajasidagi infratuzilmaga sarmoya kiritish; - harbiy va fuqarolik ishlab chiqarishining integratsiyalashuviga ko'maklashish; - tez o'zgaruvchan bilimga asoslangan iqtisodiyotda faol ishtirok eta oladigan jahon darajasidagi ishchi kuchini rivojlantirish" [7].

Shu o'rinda ayrim rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida asosiy kapitalga investitsiyalarning mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi ulushining oxirgi yetti yildagi o'zgarish dinamikasini tahlil qilamiz (1-jadval).

1-jadval. Ayrim rivojlangan mamlakatlarda asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori dinamikasi (mlrd.AQSH dollari) [8].

Mamlakatlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jahon	22150	22740	22030	23580	24650	25090	25700
YalMda ulushi %	25,4	25,7	25,6	24,0	24,1	23,5	23,1
AQSh	4326,3	4467,8	4333,5	4622,8	4844,01	4905,7	5076,7
YalMda ulushi %	21,1	21,2	20,6	19,8	18,9	17,9	17,6
Germaniya	776,4	773,1	753,5	801,6	786,9	771,7	748,8
YalMda ulushi %	19,1	19,5	19,1	18,4	18,7	16,9	15,9



Yaponiya	1164,2	1164,9	1102,1	1126,8	1129,9	1132,1	1128,7
YalMda ulushi %	23,1	22,7	21,8	22,4	26,5	26,9	28,0
Italiya	362,8	359,4	323,6	415,0	459,7	456,3	457,6
YalMda ulushi %	17,3	17,8	16,9	19,0	21,8	19,7	19,2
Buyuk Britaniya	562,9	571,1	516,2	574,1	581,1	591,5	628,0
YalMda ulushi %	19,4	19,8	18,9	17,9	18,3	17,3	17,0
Frantsiya	572,7	594,0	552,8	592,9	602,9	595,9	568,7
YalMda ulushi %	20,6	21,8	20,9	19,9	21,6	19,5	17,9
Kanada	388,1	387,9	353,3	402,3	428,1	403,6	395,3
YalMda ulushi %	22,5	22,2	21,3	19,9	19,5	18,6	17,6

Yuqorida keltirilgan 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yisha va AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya va Kanada davlatlarida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushida 2018–2024-yillarda kamayish tendensiyasi kuzatilgan. Yaponiya va Italiya kabi davlatlarda esa aksinsha o'sish kuzatiladi. Jahon bo'yisha asosiy kapitalga investitsiyalarning dunyo YAIMdagi ulushi 2024-yilda 23,1 foizni tashkil qilib, 2018-yilga nisbatan 2,3 foiz punktga kamaygan. Buning asosiy sabablari sifatida 2019–2020-yillardagi pandemiya, dunyodagi geosiyosiy va geoiqtisodiy xavflar, noaniqliklar, ziddiyatlar va savdo urushlari oqibatida investorlarning kelajakdagi foyda va risklarni hisoblashlari biroz murakkablashdi. Noaniqlik va yuqori risklar vaqtida ko'pchilik transmilliy kompaniyalar yangi loyihalarga investitsiya qilishni avval ko'rmaydilar. Rivojlangan iqtisodiyotlarda asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishda korporativ kapital ulushining kamayishi ham kuzatildi. Bundan tashqari, investitsiya fondlari orqali jahon bozorlarida sotib olingan asosiy vositalar (mashinalar, qurilish uskunolari va boshqalar) narxlarining nisbatan pasayishi ham ushbu ko'rsatkichlarning pasayishiga olib kelgan. AQSHda asosiy kapitalga investitsiyalarning YAIMdagi ulushi 2024-yilda 17,6 foizni tashkil qilib, 2018-yilga nisbatan 3,5 foiz punktga kamaygan. Bu yillarda AQSHda moddiy kapitalga nisbatan intellektual aktivlarga, axborot texnologiyalari, sof ijtimoiy xizmatlarga ko'proq investitsiya qilingan va ushbu yo'nalish investitsiyalari asosiy kapital investitsiyalarida hisobga olinmagan. Korxona va tashkilotlar ko'proq moliyaviy investitsiyalarga urg'u berishgan. Yevropa mamlakatlari, jumladan, Germaniya davlatida asosiy kapitalga investitsiyalarning YAIMdagi ulushi 2024-yilda 15,9 foizga teng bo'lib, 2018-yilga nisbatan 3,2 foiz punktga kamaygan. Yevropa mamlakatlari sanoat sektorining global raqobatdagi qiyinchiliklari, energetik muammolar, iqtisodiy noaniqlik, siyosiy o'zgarishlar va infratuzilmaning talabga javob bermayotganligi kabi masalalar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday holat Buyuk Britaniya, Frantsiya va Kanada davlatlariga ham xosdir. Yaponiyada asosiy kapitalga investitsiyalarning YAIMdagi ulushi 2024-yilda 28 foizni tashkil qilib, 2018-yilga nisbatan 4,9 foiz punktga oshgan. Italiyada esa asosiy kapitalga investitsiyalarning YAIMdagi ulushi 2024-yilda 19,2 foizga teng bo'lib, 2018-yilga nisbatan 1,9 foiz punktga oshgan. Italiyada YAIMning sekin o'sganligi va Yaponiyada esa kamayganligi ham asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushini oshirgan. Shuningdek, Yaponiyada infratuzilma, raqamli texnologiyalar va yashil iqtisodiyot sohalaridagi investitsiyalar ortgan bo'lib, past foiz stavkali kreditlar va monetar rag'batlantirishlar xususiy sektor investitsiyalarini qo'llab-quvvatlagan. Italiyada ham transport, energetika, raqamlashtirish va sanoat modernizatsiyasiga davlat investitsiyalarining faollashuvi xususiy investitsiyalarni ham qullab-quvvatlagan. Yaponiya va Italiya davlatlaridagi aholining tez qarishi mehnatning avtomatlashishini rag'batlantirib, eskirgan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan investitsiyalar ko'paygan. Umumiy xulosa qilganda, asosiy kapitalga investitsiyalarning YAIMdagi ulushi kamaygan davlatlarda global tendensiyalar, iqtisodiy sharoitlar va iqtisodiy tuzilmaning o'zgarishi ko'proq ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, investitsiyalarning YAIMdagi ulushi ortgan davlatlarda faol davlat investitsiya siyosati, pandemiya keyingi tiklanish strategiyasi, kapital intensiv o'sish modeliga o'tish va YAIMning nisbatan past o'sish sur'atlari bilan tushuntiriladi.

Quyidagi 2-jadvalda so'nggi yetti yil ichida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimlari keltirilgan. 2020-yilda barsha davlatlardagi investitsiya oqimlarining kamayishi pandemiya oqibatlari bilan asoslanadi (2-jadval).



2-jadval. Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (mlrd. AQSH dollari) [9]

Mamlakatlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
AQSh	203,2	230,0	93,4	386,1	316,9	233,1	279,0
YalMda ulushi %	0,98	1,06	0,44	1,63	1,22	0,84	0,95
Singapur	74,4	98,1	71,5	130,9	142,1	135,1	143,5
YalMda ulushi %	19,7	26,0	20,4	30,1	28,5	26,9	26,2
Kanada	37,7	50,5	25,6	61,4	45,8	46,5	64,1
YalMda ulushi %	2,2	2,9	1,5	3,1	2,1	2,2	2,9
Germaniya	67,4	57,2	64,2	74,2	53,3	52,0	5,7
YalMda ulushi %	1,7	1,4	1,6	1,7	1,3	1,1	0,1
Frantsiya	34,8	21,4	11,4	32,7	76,5	42,3	33,7
YalMda ulushi %	1,2	0,8	0,4	1,1	2,7	1,4	1,1
Yaponiya	10,0	13,7	11,8	34,3	34,2	20,8	13,5
YalMda ulushi %	0,2	0,3	0,2	0,7	0,8	0,5	0,3

2024-yilda jahon to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bozorida 2023-yilga nisbatan -11 foizlik kamayish fonida rivojlangan davlatlarda ham ushbu ko'rsatkich -22 foizga kamaygan. Yevropa davlatlarida ham kamayish kuzatilganligi uchun Germaniya (2024-yilda 2018-yilga qaraganda 61,7 mlrd.AQSH dollariga) va Frantsiyada (2024-yilda 2018-yilga qaraganda 1,1 mlrd.AQSH dollariga) kamayish kuzatilgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi AQSH, Kanada va Singapurda esa 2018–2024-yillar oralig'ida o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Yaponiyada ushbu investitsiyalar 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 3,5 mlrd.AQSH dollariga oshgan bo'lsada, oxirgi ikki yilda keskin kamaygan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi bo'yisha tahlili shuni ko'rsatadiki, AQSH, Germaniya va Fransiya davlatlarida bu ko'rsatkich o'rtasha 1 foiz atrofida, Kanada davlatida o'rtasha 2,4 foizni, Singapurda esa 2018-yilda bu ko'rsatkich YAIM ning 19,7 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, 6,5 foizga oshib 26,2 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich Yaponiyada o'rtasha 0,4 foiz atrofida bo'lgan.

Xalqaro tajribadan ma'lumki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlar oqimi, asosan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari kuzatilayotgan hamda yuqori mehnat unumdorligi ko'rsatkichlariga intilayotgan mamlakatlar tomon yo'nalmoqda. Shuning uchun investitsiya jarayonining global sharoitida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar alohida qiziqish uyg'otadi. Iqtisodiy tizimlarning davom etayotgan globallashuvi sarmoyaviy aloqalar geografiasining kengayishi, ya'ni ularning hududiy kengayishi bilan birga kechadi. Yevropa Ittifoqi zamonaviy dunyodagi eng rivojlangan mintaqaviy integratsiya bloklaridan biri sifatida joylashganligi sababli, boshqa mamlakatlarga global ta'sir ko'rsatadigan va global tendensiyalarning vektorlarini belgilab beradi, shu sababli mazkur mintaqaviy birlashmaning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan investitsiya siyosatini puxta o'rganish, erishilgan yutuqlar yoki yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tanqidiy tahlil qilish lozimdir. Umumiy holda, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar iqtisodiy siyosati doirasida amalga oshirilayotgan o'zaro xorijiy investitsiyalar Yevropa iqtisodiyotining jahon qiymat zanjirlari bilan integratsiyalashuvini ta'minlovchi asosiy infratuzilmaviy omil sifatida xizmat qiladi. "Vaqt o'tishi bilan Yevro hududining mintaqaviy (shu jumladan investitsiyaviy) siyosatida integratsiya harakati asosida uchta asosiy yo'nalish paydo bo'ldi: birinchidan, yetakshi mintaqalar bilan ijtimoiy-iqtisodiy tafovut chegaralarini toraytirish ushun autsayder mintaqalarga yordam ko'rsatish (shu jumladan, investitsiyaviy)ga urg'u beradigan iqtisodiy yaqinlashish (birlashish) siyosati; ikkinchidan, hududlarning raqobatbardoshligini va aholi bandligini oshirish siyosati; uchinshidan, mamlakat chegaralarining iqtisodiy ahamiyatini pasaytirish uchun mintaqaviy va milliy hamkorlikka ko'maklashish siyosati"[10].

"Ma'lumki, infratuzilmani rivojlantirish iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy shartidir. Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, 2030-yilga borib infratuzilma investitsiyalariga global ehtiyoj 50 trillion AQSH dollariga yetadi" [11].

"Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishda infratuzilmaning samarasi bo'yisha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu sohaga kiritilgan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining 1% ga ko'payishi iqtisodiy o'sishni 0,4% ga va keyingi to'rt yil ichida 1,5% ga oshiradi" [12]. Bu ko'rsatkichlar infratuzilma loyihalari yuqori samaradorligini aks ettiradi, bu esa xususiy sektorning bunday investitsiyalarga qiziqishini oshirmoqda.



Shu o'rinda BMT tomonidan rivojlangan davlatlar qatoriga kiritilgan to'rtta Osiyo davlatidan biri bo'lgan Yaponiya haqida to'xtalsak. Yaponiya yettilik guruhiga (G7) a'zo bo'lib, postindustrial davrga kirgan yagona Osiyo davlatidir. 1980-yillarda Yaponiya Qo'shma Shtatlardan keyin dunyodagi ikkinchi yirik iqtisodiyotga aylandi, bu asosan tashqi bozorlarni egallashga qaratilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish strategiyasi tufayli Yaponiyaning global eksportdagi ulushi 10% ga yetdi. Yaponiya yalpi ichki mahsulotining turg'unligiga quyidagi omillar sabab bo'lgan: Xitoyda iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi; aholining dunyodagi eng tez qarishi, 65 yoshdan oshgan fuqarolarning yuqori ulushi, bu esa sezilarli ijtimoiy xarajatlarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, Yaponiyada tashqi bozorlarda an'anaviy yapon kompaniyalarining o'rnini egallay oladigan innovatsion yangi avlod firmalarining yaratilmaganligi ham muhim omil hisoblanadi. Yaponiyadan farqli o'laroq, Qo'shma Shtatlar yuqori texnologiyali kompaniyalar avlodlarining uzluksizligini ta'minlay oldi. Shunday qilib, IMB o'rnini Misrosoft va Intel egalladi va ular o'z navbatida Googl va Apple bilan almashtirildi. Yaponiyada Sony va Panasonis kompaniyalari o'zlarining munosib vorislarini topa olishmadi. 1946-yildan buyon Yaponiyaning 20 ta yirik elektronika ishlab chiqaruvchilari ro'yxatiga birorta ham yangi kompaniya kiritilmagan. Hozirgi vaqtda Yaponiya o'zining raqobatbardosh ustunliklaridan samarali foydalanish maqsadida yangi bozor segmentlarini faol izlamoda (3-jadval).

3-jadval. Yaponiya iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari [13]

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Kapital investitsiyalar (mlrd.dollar)	1164,2	1164,9	1102,1	1126,8	1129,9	1132,1	1128,7
YalMda ulushi %	23,1	22,7	21,8	22,4	26,5	26,9	28,0
Import (mlrd.dollar)	748,5	720,9	635,5	768,9	897,2	785,8	742,6
Eksport (mlrd.dollar)	738,2	705,7	641,3	757,1	746,7	717,9	727,8
Tashqi savdo balansi (mlrd.dollar)	-10,3	-15,2	5,8	-11,8	-150,5	-67,9	-14,8
Inflyatsiya %	1	0,5	0	-0,3	2,5	3,25	2,74

3-jadvalda Yaponiya davlatining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari keltirilgan. Pandemiya dunyoda global ta'minot zanjirlarini buzilishi oqibatida Yaponiya eksporti mahsulotlariga talabni kamaytirdi. Yaponiya eksporti 2024-yilda 727,8 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 10,4 mlrd. AQSH dollari miqdorida kamaygan. Xom-ashyo va butlovshi qismlar importida esa logistika muammolari yuzaga keldi, natijada import 2024-yilda 742,6 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lib, 2018-yilga nisbatan 5,9 mlrd. AQSH dollari miqdorida kamaygan. Yaponiya milliy valyutasining AQSH dollariga nisbatan qadrsizlanishi energiya resurslari, oziq-ovqatlar va sanoat xom-ashyosi importi qimmatlashishiga sabab bo'ldi. Ichki narxlarning oshishi evaziga inflyatsiya darajasi 2024-yilda 2,74 foizni tashkil qilib, 2018-yilga nisbatan 1,74 foiz punktga oshdi. Yaponiya energiya resurslariga kuchli bog'liq mamlakat bo'lganligi ushuni inflyatsiya tezlashib ketgan. Bundan tashqari, yuritilgan pul-kredit siyosati iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlagan bo'lsada, inflyatsiya bosimini kushaytirdi. Ammo, bunday iqtisodiy konyukturada ham Yaponiyada asosiy kapitalga investitsiyalar amalga oshirildi.

2013-yilda Bosh vazir Sindzo Abe hukumati ilg'or yapon infratuzilma texnologiyalarini xorijda targ'ib qilishga qaratilgan Global mukammallik strategiyasini e'lon qildi. Infratuzilmaga sarmoyalar yaqin kelajakda iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rilmogda. S. Abe siyosatida infratuzilmani rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik markaziy ahamiyatga ega. Yaponiyada hukumat va biznes hamkorligining eng keng tarqalgan shakli - xususiy moliya tashabbusi bo'lib, uning doirasida hozirda 400 dan ortiq loyiha amalga oshirilmoqda va ularning umumiy qiymati 23,5 milliard AQSh dollariga teng. Xususiy moliya tashabbusi loyihalariga aeroportlar, suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilish ishlari, rekonstruktsiya va shahar magistrallarini modernizatsiya qilish kiradi. Tizimning mukammalligi shundaki, xususiy subyekt risklarni kamaytirgan holda o'z biznesini rivojlantiradi va sifat uchun ishlaydi. Ya'ni, yangi biznes uchun sarflanadigan xarajatlarini tejash imkoniga ega bo'lib, resurslarni sifatli xizmatni oshirishga yo'naltiradi. Mulkga egalik huquqi esa davlat zimmasida qolaveradi.

2022-yilda inflyatsiya darajasi butun dunyo bo'ylab, jumladan, G7 mamlakatlarida ham oshdi, bu yerda ular Yaponiyada 2,5% dan Italiyada 8% dan ortiqni tashkil etdi. Inflyatsiya 2022-yil oxirigacha butun dunyo bo'ylab keskin oshdi, bunga o'sha 2022-yilning fevral oyida Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi sabab bo'ldi. Gaz va elektr energiyasi narxlarining ko'tarilishi, ayniqsa, Rossiya-Ukraina urushi boshlanganidan keyin narxlarga qattiq ta'sir ko'rsatdi. 2024-yilda inflyatsiya darajasining barsha G7 mamlakatlarida pasayishi kuzatildi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida rivojlangan mamlakatlarda, xususan AQSH, Kanada, Buyuk-Britaniya va Italiya kabi mamlakatlar misolida iqtisodiyotda asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishning o'ziga xos jihatlari o'rganildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, moliyalashtirish asosan infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan, investitsiya loyihalarida xususiy sektorning ulushi yuqori va barqaror rivojlanish maqsadlariga qaratilgan. Umumiy xulosa qilganda, asosiy kapitalga investitsiyalarning YAIMdagi ulushi kamaygan davlatlarda global tendentsiyalar, iqtisodiy sharoitlar va iqtisodiy tuzilmaning o'zgarishi ko'proq ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, investitsiyalarning YAIMdagi ulushi ortgan davlatlarda faol davlat investitsiya siyosati, pandemiyadan keyingi tiklanish strategiyasi, kapital intensiv o'sish modeliga o'tish va YAIMning nisbatan past o'sish sur'atlari bilan tushuntiriladi.

Davlatlarning globallashtirish va halqaro baynalminallashuvi sharoitida, davlatlar va iqtisodiy tizimlarning intensivlashuvi global miqyosda investitsiya almashinuvini faollashtirishda o'ziga xos dolzarblikni kasb etadi. Bu moliyaviy-sanoat guruhlar va yirik kompaniyalarga o'z mamlakatlariga yangi ishlab chiqarish va boshqaruv texnologiyalarini jalb qilish, innovatsion, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha yirik global ishlab chiqarish zanjirlarida ishtirok etish, milliy tovar va xizmatlar eksporti imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari asosida milliy iqtisodiyotning real sektorida, ya'ni asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirishda quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin: loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish; xususiy sektor ishtirokini oshirish orqali investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirish; barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, ya'ni iqtisodiy o'sish bilan birga ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlash; investitsiya siyosatida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlikni rivojlantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD. (2022). Financing Investment in the Real Economy. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/fin_invest_real_economy-2022-en
2. European Commission. (2021). Investment and Financing in the EU: Policy Frameworks and Trends. Brussels: European Commission. https://ec.europa.eu/info/publications/investment-financing-eu_en
3. North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press.; Williamson, O. E. (1985). The Economic Institutions of Capitalism: Firms, Markets, Relational Contracting. New York: Free Press.
4. Havrylych, O., & Kierzenkowski, R. (2015). Enhancing the financing of the real economy and financial stability in the United Kingdom. OECD Economics Department Working Papers, No.1245.
5. Каримов Н.Г. (2011) Инвестицияни ташкил этиш ва молиялаштириш: Дарслик. – Т.: ТДИУ, -90 б.
6. Мустафакулов Ш.И. (2017) Инвестицион муҳит жозибadorлиги: назария, методология ва амалиёт. Монография. – Тошкент: "Iqtisod-moliya".
7. Мировая экономика: прогноз до 2020 года / под ред. акад. А.А. Дынкина // ИМЭМО РАН. – М.: Магистр, 2008. – С. 95.
8. Jahon banki ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan. <https://data.worldbank.org/indicator/NE.GDI.TOTL.KD>
9. Unctad ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqildi. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2025>
10. Муртузалиева, С. Ю. Европейский опыт региональной политики // Наука – промышленности и сервису. 2010. №5-1. С. 225–229.
11. Duvall T., Kerlin M. and Palter R. Creating an infrastructure bank: principles of success // Voices on infrastructure. — March 2017, p. 13–16.
12. IMF. World economic outlook. Legacies, clouds, uncertainties. Washington, D.C.: International Monetary Fund, October 2014.
13. Jahon banki ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan. <https://data.worldbank.org/indicator/NE.GDI.TOTL.KD>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>